

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA SHAXSGA YO'NALТИРИЛГАН ТА'LIM MEZONLARI

Nurmurodova Rayxon Ruzimurodovna

NavDPI. Ta'lismi va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta'lismi) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya:

Maqolada maktabgacha ta'lismi tashkilotlarda bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lismi asosida tarbiyachi va bolaning o'zaro munosabati, o'z-o'zini tahlil qilish hamda tarbiyachi va ota-onalar hamkorligi haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: shaxsiga yo'naltirilgan ta'lismi, individual xususiyatlar, ta'lismi texnologiyasi, kognitiv, kommunikativ, integratsiya, ijtimoiy-hissiy, ijtimoiy-motor.

Аннотация:

В статье представлена информация о взаимодействии воспитателя и ребенка, самоанализе, сотрудничестве воспитателя и родителей в дошкольных образовательных организациях на основе детско-ориентированного образования.

Ключевые слова: личностно-ориентированное образование, индивидуальные особенности, образовательная технология, когнитивная, коммуникативная, интеграционная, социально-эмоциональная, социально-моторная.

Abstract:

The article provides information on the interaction between the educator and the child, self-analysis, and the cooperation of the educator and parents in preschool educational organizations based on child-oriented education.

Key words: person-oriented education, individual characteristics, educational technology, cognitive, communicative, integration, social-emotional, social-motor. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lismi sohasida, yosh avlodni yetuk kadrlar etib tarbiyalash masalalariga doimiy e'tibor qaratib kelinmoqda.

Maktabgacha ta'lismi tizimida "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha

**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

Date: 1st May, 2023

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” va “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturining hamda “Ilm yo‘li” variativ dasturining ishlab chiqilib, amaliyatga tadbiq etilgani mактабгача та’лим sohasidagi ta’lim-tarbiya jarayonini samarali amalga oshirish imkoniyatini yaratdi.

Mактабгача та’лим tashkillotlari barcha yosh guruhlarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida tashkil etilgan rivojlanish markazlaridagi jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o’zlashtirishga, mustahkamlashga yordam beradi. Bolalarni o’z bilimini mustaqil ravishda to’ldirib borish, bo’layotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o’rgatish rivojlanish markazlarining asosiy maqsadidir. Mактабгача та’лим tashkilotida rivojlanish markazlarini tashkil etish Davlat talablari va «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturini amalga oshirishni nazarda tutadi. Markazlarda ishlash har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda eng samarali rivojlanishiga imkon beradigan tarzda, uning individual qobiliyatları, qiziqishlari, faoliyat darajasini inobatga olgan holda tashkil etiladi.

Mактабгача yoshdagi bolalarni tarbiyalashda rivojlanish markazlarini tashkil etishning asosiy sharti pedagogdan tayyor bilim olishdan ko‘ra, bolaga rivojlanish markazlarida faoliyatni tanlash imkoniyatini berish, bunda u atrofdagi dunyo haqida bilimlarni mustaqil ravishda egallashi, ko‘nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirish, bolaga qiziquvchanlik, mustaqil izlanish, tadqiqot jarayoniga qo‘shilish imkoniyatini berishdir.

Rivojlanish markazlari ta’lim, rivojlantiruvchi, o‘qitish, rag‘batlantiruvchi, uyushgan, kommunikativ funksiyalarni bajarishi kerak. Eng muhimi, ular mustaqillikni rivojlantirish ustida ishlashlari kerak, bolalar va kattalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga asoslangan bolaning tashabbusini rag‘batlantirishi kerak. O‘yin jarayonida bolalar hamkorlik qilishga o‘rganadi, qoidalar bilan tanishadi va yangilarini ishlab chiqadi, o‘ziga va boshqalarga baho berish ko‘nikmalari rivojlanadi, shaxsiy, jismoniy, intellektual va ijtimoiy muammolarni hal etadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning o‘ziga xosligi shundaki, bola kimningdir istagiga ko‘ra emas, o’z imkoniyatlari, salohiyati, tabiatni xususiyatlariga mos ravishda shakllanadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning markazida bolaning o‘z imkoniyatlarini to’la namoyon etishga intilishi, yangi tajribani qabul qilishi, turli hayotiy vaziyatlarda ongli ravishda qaror qabul qilishga qodirligi turadi.



**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

Date: 1st May, 2023

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

Tarbiyalanuvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim – o‘quv shaxsiy imkoniyatlariga moslashtirilgan pedagogik muhitni hamda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Bu ta’lim texnologiyasida har bir tarbiyalanuvchini tushunish, hurmat qilish, unga ishonish katta ahamiyatga ega.

Tarbiyachi tomonidan tarbiyalanuvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirishning quyidagi asosiy mezonlari mavjud:

1. Har bir tarbiyalanuvchida buyuk shaxsdek qarash, uni hurmat qilish, uni tushunish, qabul qilish, unga ishonish.
2. Ta’limning shunday muhitini yaratish kerakki, unda tarbiyalanuvchi o‘zini shaxs deb sezsin, unga bo‘lgan e’tiborni tuysin.
3. Bolaga tazyiq o‘tkazmaslik hamda uning kamchiligini bo‘rttirmaslik, bilimlarni o‘zlashtirmasligi, o‘zini yomon tushunish sabablarini aniqlash va ularni bolaning shaxsiyatiga zarar yetkazmaydigan tarzda bartaraf etish.
4. Ta’limda “muvaffaqiyat muhiti”ni tashkil etish, bolaga o‘qishga muvaffaqiyat qozonishda yordam berish, uning o‘z ko‘chi va iqtidoriga ishonchini orttirish. Tarbiyalanuvchida atrofdagilarning har biri o‘zi kabi ekanligini anglatish, unda jamoada aloqadorlik hisssini rivojlantirish.
5. Tarbiyalanuvchining hurmati va ishonchini qozonish, o‘ziga ham shaxs nuqtai nazaridan qarash.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirish faoliyatida bolalarning kognitiv (aqliy), kommunikativ (nutq, muloqotchanlik), ijtimoiy-hissiy va ijtimoiy-motor rivojlanishiga sharoit yaratishini ta’minalash juda muhimdir. Bolaning rivojlanishiga sharoit nafaqat guruh xonalarida, balki ta’lim tashkilotiga kirishda yo‘laklarda, sport va o‘yin maydonchalarida ham yaratilgan bo‘lishi shart.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv vaziyatlari tarbiyalanuvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish usul va metodlari bilan uzviy bog‘liq.

Mashg‘ulot jarayonida tarbiyachi-tarbiyalanuvchi hamkorligining tadqiqot-izlanish metodlari hamda dialogi shakllariga qaratiladi, shuningdek, ko‘rgazmali, tasviriy, reproduktiv va boshqa metodlar qo‘llaniladi.

Tarbiyalanuvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim amalga oshiriladigan ayrim noan’anaviy dars shakllari.



1. **“Sho‘ng‘ish mashg‘uloti”** – tarbiyalanuvchi berilgan yangi bilimlarni egallash uchun eng qulay muhitda bo‘lish yoki shunday muhit yaratish orqali mavzuni faol o‘rganish mashqlaridan iborat.
2. **“Musobaqa mashg‘uloti”** – tarbiyalanuvchilarning o‘zaro musobaqalashuvini tashkil etish orqali bilimlarni mustahkamlash mashqlari.
3. **“Ijod mashg‘uloti”** – tarbiyalanuvchilarning mustaqil ijod etishlarini tashkil qilish mashg‘uloti.
4. **“Sinov mashg‘uloti”** – tarbiyalanuvchilarning o‘zlashtirishini turli shakllarda sinash tashkil qilinadigan mashg‘ulot.
5. **“Umumlashtirilgan mashg‘ulot”** – ilgari o‘tilgan mashg‘ulotlar bo‘yicha olingan bilimlarni umumlashtirish mashqlarini o‘tkazish mashg‘ulot.
6. **Seminar mashg‘uloti** – yangi mashg‘ulot mavzusiga doir savollar bo‘yicha tarbiyalanuvchilarga oldindan berilgan topshiriqlarni bajarish natijalari to‘g‘risida ma‘lumotlarni tinglash orqali guruhdagi barcha tarbiyalanuvchilar mashg‘ulotni o‘zlashtirishlarini va olgan bilimlarini mustahkamlashni ta’minalash mashg‘uloti.
7. **Ekskursiya mashg‘uloti** – bu mashg‘ulotda tarbiyalanuvchilarni turli obyektlar: muzey, ziyoratgoh, tabiat qo‘ynida, zoopark va boshqa joylarga olib borish, tanishtirish orqali ularning bilimlarini hayot bilan bog‘lash va kasbga yo‘naltirish ishlarini amalga oshirib borish ta’milanadi. Juda uzoqdagi va borish qiyin bo‘lgan obyektlarga, ular to‘g‘risida filmlar, turli ko‘rgazmali va boshqa materiallar mavjud bo‘lgan hollarda, ularni tarbiyalanuvchilarga namoyish etib, tushuntirish orqali videoekskursiyalar tashkil etish ham mumkin.

O‘zbekiston Respublikasidagi maktabgacha ta’lim tizimi bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, davlat va jamiyat talablariga binoan har tomonlama rivojlantirilishini ta’minalashi lozim. Maktabgacha yoshning xususiyati shundan iboratki, ushbu davrda aynan umumiyligi rivojlanish ta’milanadi, natijada kelajakda har qanday ijtimoiy bilim, malaka, ko‘nikma va faoliyatning turli ko‘rinishlarini egallash uchun poydevor yaratiladi. Ta’lim jarayoni bola shaxsiga yo‘naltirilganligidan kelib chiqib, maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim-tarbiyasi shaxsning rivojlanishida ijodiy va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda ta’lim-tarbiyaning usul va uslublariga tayanib amalga oshirilishi lozim.

Bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim asosida tarbiyachi va bolaning o‘zaro ijodiy hamkorligi sifatida munosabat; majburlamasdan o‘qitish; qiyin maqsad g‘oyasi



**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

Date: 1st May, 2023

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

(bolaning oldiga murakkab maqsad qo‘yiladi va uni yengib o‘tishiga ishonch hissi singdiriladi); tayanchdan foydalanish (tayanch signallar); o‘z-o‘zini tahlil qilish (bolalar faoliyati natijalarini yakka tartibda va jamoa bo‘lib muhokama qilish); erkin tanlov (tarbiyachi tomonidan ixtiyoriy ravishda bolalarning o‘quv dasturini yaxshiroq o‘zlashtirishlarini maqsad sifatida belgilab o‘qitish vaqtini tanlashi); guruhning intellektual foni (o‘qitishning mazkur bosqichida ahamiyatli hayotiy maqsadlarni qo‘yish va tarbiyalanuvchilar tomonidan dasturga nisbatan kengroq bilimlar egallah); shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, tarbiyachi va ota-onalar hamkorligi.

Shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limning natijalari bolada hozirjavoblik, mehribonlik, muloqotchanlik, rostgo‘ylik, haqiqatparvarlik, maqsad sari intilish, tashabbuskorlik, dadillik, tashkilotchilik, mehnatsevarlik, javobgarlikni his qilish, ziyraklik, vazminlik, mardlik, mustaqillik, ishchanlik, kuzatuvchanlik, topqirlik kabi shaxsiy fazilatlarning o‘zgarishida namoyon bo‘ladi. Shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim orqali inson va fuqaroning zamonaviy jamiyatga takomillashuvi hamda har tomonlama kirishuvi (qorishib ketishi) ta’milanadi; zamonaviy bilimlar darajasiga mos keluvchi dunyo tasviri shakllanadi; dunyo darajasiga mos keluvchi shaxsning milliy va dunyoviy madaniyatga integratsiyasini zamin tayyorlovchi jamiyatning umumiy va professional madaniyati vujudga keladi; jamiyatning milliy kadrlar salohiyati ishlab chiqiladi va rivojlantiriladi.

Maktabgacha ta’lim jarayonida bolaga ta’lim-tarbiya berishda shaxsga yo‘naltirigan ta’lim modeli ustuvor sanaladi. Shaxsga ongli yondashishning maqsadi-shaxsni rivojlantirish, uni berilgan standart va bosim ostida “o‘zgartirish emas”, balki uni qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilishdir. Shaxsiy yondashuv ta’lim jarayoni ishtirokchilarining shaxsiy majburiyatlarini rivojlantirish va to‘liq namoyon qilish uchun sharoit yaratishni ko‘zlaydi. Shaxsiy majburiyatlar - bu shaxs tomonidan “shaxs bo‘lish” ijtimoiy buyurtmasini tatbiq etuvchi ma’lum fazilatlarning namoyon etilishidir.

Shunday qilib, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali tarbiyalanuvchining zamonaviy jamiyatga takomillashuvi hamda har tomonlama kirishuvi ta’milanadi, zamonaviy bilimlar darajasiga mos keluvchi dunyo tasviri shakllanadi, dunyo darajasiga mos keluvchi shaxsning milliy va dunyoviy madaniyatga integratsiyasini zamin tayyorlovchi jamiyatning umumiy va professional madaniyati vujudga keladi, jamiyatning milliy kadrlar salohiyati ishlab chiqiladi va rivojlantiriladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat Standarti” 802-sonli Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta`lim vazirligining 2022 yil 4-fevraldagagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashri).
4. “Ilm yo‘li” variativ dasturi. Toshkent. O‘zRMTV. 2019.
5. Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh.Q., Kayumova N.M., A’zamova M.N. “Maktabgacha pedagogika” Darslik “Tafakkur” –T.: 2019.
6. “6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash va maktabga moslashuvini o‘rganish”. Metodik qo‘llanma. K.Nizomova, T.: 2006.
7. “Bolangiz maktabga tayyormi?” metodik qo‘llanma. T.: 2001.
8. Djurayeva.D.R. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari T.: 2015 y. UzPFITI. Uslubiy qo‘llanma.